

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari	9
S.R.Mirzayeva	
Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva	
Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев	
Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе	23
D.M.Khoshimova	
"Boburnoma" asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova	
Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari	30
Z.T.Hakimova	
Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov	
Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova	
An analysis of "Baburnama" in comparison with its translation	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова	
Любовь в лирике Сапфо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ	42
N.Farmonov	
Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism	47
Я.И.Нишанов	
Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov	
Assotsiativ syujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva	
Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi	59
D.M.Abdullayeva	
Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va unda ota obrazi	67
M.T.Tolibova	
Isajon Sulton hikoyalarining syujet qurilishi	71
A.A.Abduraxmonov	
Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang	74
F.X.Nurdinova	
Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning "So'na" romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida)	77
F.X.Nurdinova	
Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva	
Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies	86
M.Y.Mamajonov	



UO'K: 811.512

TARJIMADA LEKSIK ADEKVATLIKNI TA'MINLASH
(E.L.Voynichning "So'na" romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida)

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ АДЕКВАТНОСТИ
(На примере русского и узбекского переводов романа Э. Л. Войнич «Овод»)

ENSURING LEXICAL ADEQUACY IN TRANSLATION
(On the example of Russian and Uzbek Translations of E.L.Voynich's Novel "The Gadfly")

Nurdinova Fotima Xolmirzayevna 

Namangan davlat texnika universiteti

"Xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjimashunoslik sohasida dolzarb bo'lib kelayotgan masalalardan biri badiiy tarjimada tarjimon mahoratining namoyon bo'lishi va uning ahamiyati atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda, avvalo aslyat muallifining individual uslubi, milliy o'ziga xoslik unsurlari hamda davr ruhini tarjima jarayonida aniq va adekvat aks ettirish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqotda badiiy matn tabiatiga xos obrazlilik, badiiy tasvir vositalari va ularning tarjimada ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy misollar orqali ochib berilgan. Shuningdek, tarjimonning so'z tanlashdagi mahorati, leksik tanlovning asarning mazmuniy va stilistik yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni alohida e'tibor bilan ko'rib chiqilgan. Mazkur tahlillar tarjimonning badiiy matnni qay darajada chuqur anglashini va aslyat ruhini yetkazishdagi mas'uliyatini yoritib berishga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье всесторонне освещаются одни из наиболее актуальных вопросов современной переводческой науки проявление профессионального мастерства переводчика в художественном переводе и его важность. В исследовании прежде всего анализируются проблемы точного и адекватного отражения индивидуального стиля автора оригинала, элементов национальной самобытности, а также духа эпохи в процессе перевода. На основе сопоставительных примеров раскрываются образность, художественно-изобразительные средства, присущие природе художественного текста, и особенности их передачи в переводе. Особое внимание уделяется мастерству переводчика в выборе слов, роли лексического отбора в обеспечении смысловой и стилистической целостности произведения. Проведённые анализы служат раскрытию степени глубокого понимания переводчиком художественного текста и его ответственности в передаче духа оригинала.

Abstract

This article provides a comprehensive discussion of a pressing issue in translation studies: the manifestation of the translator's professional mastery in literary translation and its significance. The study primarily analyzes the challenges of accurately and adequately conveying the author's individual style, elements of national identity, and the spirit of the era in the translation process. Using comparative examples, the research examines the imagery and artistic devices characteristic of literary texts, as well as the specific features of their rendering in translation. Special attention is given to the translator's skill in word choice and the role of lexical selection in ensuring the semantic and stylistic integrity of the work. These analyses highlight the translator's depth of understanding of the literary text and their responsibility in conveying the spirit of the original..

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, tarjimon mahorati, aslyat ruhini yetkazish, so'z tanlash, leksik tanlov, uslubiy moslik, milliy o'ziga xoslik, badiiy matnning obrazlilik, stilistik yaxlitlik, tarjimada qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: художественный перевод, мастерство переводчика, передача духа оригинала, выбор слов, лексический отбор, стилистическое соответствие, национальная самобытность, образность художественного текста, стилистическая целостность, сопоставительный анализ в переводе.

Key words: literary translation, translator's mastery, conveying the spirit of the original, word choice, lexical selection, stylistic correspondence, national identity, imagery of the literary text, stylistic integrity, comparative analysis in translation.

KIRISH

Tarjima ijodiy jarayon bo'lib, unda tarjimonning mahorati va badiiy didi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ilmiy-tanqidiy qarashlar va xulosalar tarjimonga ma'lum darajada yo'nalish berib, uning tasavvurini boyitadi hamda amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan turli tasodifiy qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmasini shakllantiradi. Ko'plab so'z san'ati namoyandalari o'zlarining original ijodi bilan bir qatorda badiiy tarjima bilan ham faol shug'ullanib kelganlar. Ba'zi ijodkorlar hatto tarjimalari orqali tanilgan bo'lsalar, boshqalarning adabiy merosida tarjima muhim o'rin egallaydi. Yana shunday adiblar borki, ular yaratgan asarlar orasida tarjimalar salmoqli bo'lishiga qaramay, jamoatchilik ularni mutarjim emas, balki "sof milliy ijodkor" sifatida qabul qiladi.

Ma'lumki, malakali tarjimon ko'pincha turli xalqlarning turmush tarzi va dunyo qarashiga oid tushunchalarni matn kontekstida to'g'ri qayta tiklash masalasi bilan shug'ullanadi. Bunda mutarjim original asardagi milliylikni boshqa xalqlarga xos madaniy unsurlarni tarjima tilidagi mutlaqo boshqa tushuncha bilan aralashtirib yubormasligi zarur. Masalan, agar matnda Yevropa xalqlarining urf-odatlariga oid so'z qo'llangan bo'lsa, uni Osiyo madaniyatiga xos bir tushuncha bilan almashtirish mutlaqo noo'rin. Ya'ni tarjimon asliyatni sun'iy ravishda "milliylashtirib", o'zga madaniyatga moslab yubormasligi kerak. Xalqlar turmush tarzini ifodalovchi so'z va iboralar tarjima qilishda tarjima tilida ularga ma'nodosh, har jihatdan mos keladigan, shu tilning madaniy me'yorlari tomonidan qabul qilinadigan vositalarni tanlash muhim ahamiyatga ega.

Bunday tushunchalar ba'zi xalqlarning tafakkurida bir xil yoki juda yaqin shaklda aks etishi mumkin. Masalan, o'zaro yaqin bo'lgan xalqlar o'zbeklar va tojiklar, ruslar, ukrainlar va beloruslar, nemislar, inglizlar va gollandlar, shuningdek Kavkaz xalqlari madaniy va iqtisodiy jihatdan o'xshash bo'lgani uchun ko'plab so'zlar, tushunchalar, qarashlar, orzu-umidlar, xursandchilik va tashvishlar uyg'unligi kuzatiladi. Shu bois, bu tillardagi o'xshash iboralaridagi milliy rang-baranglikni to'g'ri aniqlash va ifodalash tarjimon uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, milliy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan so'zlarning ko'pchiligi boshqa tillarda ham mos tushunchalarga ega bo'lishi mumkin, yoki aksincha. Masalan, Amerika xalqi tomonidan ishlatiladigan ko'plab so'z va milliy ruhdagi tushunchalar jahon xalqlarining globallasuvi natijasida umummilliy xarakter kasb etgan. Bu so'z va iboralar jahon tillari lug'atida mustahkam o'rin egallagan. Xalqlar turmush tarzini keng ommalashtirishda televideniya, radio, kino va matbuotning roli beqiyosdir. Shu holatlar tarjimonga ma'lum osonliklar yaratadi.

Bundan tashqari, turli xalqlarning milliy tushunchalarini ifodalovchi so'z va iboralar ma'nosi va funksiyalari mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy-iqtisodiy va savdo-sotiq kabi turli aloqalar natijasida boshqa xalqlar, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tushunarli bo'lib boradi.

O'zaro mushtaraklikka ega bo'lmagan, turli til oilalariga mansub tillararo tarjima masalasi yuzasidan so'z borganda, taniqli tarjimon, yozuvchi va adabiyotshunos olim Mirzakalon Ismoilning tarjima faoliyati tadqiqotlarimiz jarayonida alohida e'tiborga molik ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yozuvchi Mirzakalon Ismoil butun umrini adabiy asarlarni tarjima qilish san'atiga bag'ishlagan. U dunyo adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek tiliga qayta yaratib, ona xalqiga yetkazish orqali ularni ma'rifatli qilish va ruhlantirishga hissa qo'shgan. Bunga E.L.Voynichning "So'na" romani tarjimasi yorqin misol bo'la oladi. Mutarjim Mirzakalon Ismoil romani tarjimasida o'zbek kitobxonining ma'naviy dunyosida to'laqonli shakllanishni ta'minlash maqsadida ona tilining barcha imkoniyatlaridan samarali va maqsadga muvofiq foydalangan. U yozuvchi yaratgan timsollar dunyosiga kirib, tarjima jarayonida ular bilan hamnafas bo'lgan, xususan, romanning ruhiyatini chuqur anglash maqsadida asarning ruscha tarjimasini batafsil o'rgangan. O'zbek tiliga o'girilib chiqqan nusxani kuzatganda, tarjimonning sermahsul ijodiy jarayoni ostida naqadar mashaqqatli va puxta mehnat qilgani teran anglansa bo'ladi.

Ma'lumki, "So'na" romani va uning muallifi haqida tadqiqotchi va adabiyotshunoslar tomonidan yetarli darajada ilmiy ishlar olib borilgan. Asar kurash ruhiga to'la bo'lishi, sotsial tabaqalanishga qarshiligi va ateizmga moyilligi sababli sovet davrida keng e'tirof topgan. Boshqacha aytganda, mazkur roman o'sha davr sho'ro tafakkuriga moslashgan edi. Shu bilan birga, asarning tub mazmuni va asosiy ijtimoiy g'oyasi vatan erkinligi edi. Mirzakalon Ismoil ana shu asosiy maqsadni chuqur angladi va asarni jon kuydirib tarjima qildi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Garchi “So’na” o’zbek tiliga asliyatidan emas, balki rus tilidagi tarjimasidan bilvosita tarzda o’girilgan bo’lsada, tarjimon asar matni va ruhiyatini hisobga olgan holda ona tilimizning boyligidan imkon qadar so’z va iboralarni izlab topib, tarjimoni asliyatga mos yuqori darajada amalga oshirishga intilgan. Har gal roman yangi nashr etilar ekan, u takror-takror tahrir qilishdan charchamagan.

“So’na” Mirzakalon Ismoilii uchun chinakam kashfiyot bo’ldi. Bu romanni o’qigan kitobxon asar ruhining va uslubining ona tilimizda beqiyos mahorat bilan qayta tiklanganiga amin bo’ladi. Romanda diniy mazmundagi jumlar juda ko’p uchraydi, va tarjimon aksar hollarda ularni diniy asarlar uslubiga xos tarzda to’g’ri tarjima qilgan. Shu jumladan:

Asliyatda: “Peace be with you, my children” [4. b-141].

Ruscha tarjimasida: “Мир вам, дети мои” [5. b-184].

O’zbekcha tarjimasida: “Parvardigor o’z panohida asrasin sizlarni, bolalarim” [6. b-192]. Bu so’zlar yepiskop Montanelliga tegishli.

Tarjimon Mirzakalon Ismoiliiyning so’z tanlashdagi mahoratini tan olmaslikning iloji yo’q. Yuqoridagi misolda, asliyatdagi “Peace be with you, my children” iborasi ingliz tilidan so’zsifat tarjima qilinsa, uning ma’nosi faqat “Tinchlik siz bilan, bolalarim” tarzida yetkazilgan bo’lardi [2, 3]. Natijada o’zbek tilida diniy ulamolar nutqiga xos bunday go’zal va ohangdor ifoda shakllanmagan bo’lar edi.

Shu o’rinda asar qahramoni, kardinal Montanellining maydondagi xalqqa bergan fatvosi tarjimasiga e’tiborni qaratish lozim:

Asliyatda: *He raised his eyes at last, and gave the benediction with a hand that was not quite steady - “God is merciful” he said. “Lay your burden before his throne: for it’s written: A broken and contrite heart shalt thou not despise”* [4. b-143].

Ruscha tarjimasida: *Наконец он поднял глаза и нетвердой рукой благословил народ: - Господь всемилостив! “Сложите к престолу его бремя души вашей, ибо сказано: Сердца разбитого и сокрушенного не отвергай”* [5. b-186].

O’zbekcha tarjimasida: *U axiyri ko’zlarini baland ko’tarib, xiyol titrab turgan qo’llari bilan xalqqa fatvo berdi. - O’lohu taolloning marhamati ulug’dir, - dedi u, - qalbingdagi dardingni dargohiga borib arz et, chunki: “o’rtangan va vayron bo’lgan qalbdan yuzingni o’girma”, degan* [6. b-195].

Boshqa jihatlarni soqit qilib, birgina “dardingni dargohiga borib arz et” kalimasini ko’rib chiqadigan bo’lsak, *dard* va *dargoh* so’zlari o’rtasidagi ohangdoshlikni ko’ring. Ushbu ohangdoshlik qanday tiklanganini ko’rib turibmiz.

Mana yana bir misol asarning birinchi bobida berilgan Montanelli bilan Artur o’rtasidagi suhbatga e’tiborni qarataylik:

Asliyatda: *My son he said, God forbid that I should say He has not spoken to your soul. But remember your condition when this thing happened, and do not take the fancies of grief or illness for his solemn call. And if, indeed, it has been his will to answer you out of the shadow of death, be sure that you put no false construction on his word. What is this thing you have it in your heart to do?* [4. b-8].

Ruscha tarjimasida: *- Сын мой! - проговорил он. Я не посмею сказать, что господь не обращался к твоей душе. Но вспомни, в каком ты был состоянии тогда, и не принимай болезненную мечту за высокий призыв господя. Если действительно такова была его воля - ответить тебе, когда смерть посетила твой дом, - смотри, как бы не истолковать ошибочно его слово. Куда зовет тебя твое сердце?* [5. b-24].

O’zbekcha tarjimasida: *- O’g’lim! - dedi u, nihoyat. Parvardigor ruhing bilan gaplashmadi, deb aytishdan mani xudoning o’zi saqlasin. Lekin bu narsalar qanday vaziyatda yuz berganini unutmam va unutmaslik bilan birga, qayg’uga cho’ngan betob kishining orzularini parvardigorning tantanali chaqirig’i deb qabul ham qilma. Agar chindan ham parvardigor senga javob qilishni ixtiyor etgan bo’lsa, tayyor bo’l, uning so’zlarini xato tushunib yurma tag’in. Jonsarak turgan joning sani qaysi tomonlarga chorlayapti?*

Asliyatda berilgan “What is this thing you have it in your heart to do?” iborasi rus tilida “Куда зовет тебя твое сердце?” shaklida tarjima qilingan. Oddiy so’zma-so’z yondashuv bilan bu ibora “Joning qayoqqa chorlayapti?” tarzida berilgan bo’lar edi.

Biroq, Mirzakalon Ismoilij badiiy tarjimoni shunchaki yuzaki ish sifatida emas, balki haqiqiy ijodiy jarayon sifatida yondoshgan. Shu sababli u iborani “Jonsarak turgan joning sani qaysi tomonlarga chorlayapti?” shaklida ifodalaydi. Bu yerda “Jonsarak joning” iborasidagi ohangdoshlik tarjimonning soʻz tanlashdagi mahoratini yaqqol namoyon qiladi.

Tarjimonning soʻz ustasi ekanligini professor Gʻaybulla Salomov ham eʼtirof etib, yozadilar: “Mirzakalon Ismoilij asarlarining tili oʻrganilib, ‘Mirzakalon lugʻati’ tuzilsa, bu olijanob ish boʻlardi. Bu esa oʻsib kelayotgan yosh ijodkorlar uchun mahorat maktabi boʻlishi turgan gap” [1, 7. b-18].

Asar ruhini va uslubini ona tilimizda beqiyos mahorat bilan qayta tiklashga nafaqat oʻzbek kitobxoni, balki boshqa millat vakillari ham hayrat bilan guvoh boʻlganini izlanishlar davomida kuzatdik.

USLUB

Tadqiqot materiali asosan asliyat tili sifatida ingliz tilida va tarjima tili sifatida rus hamda oʻzbek tillarida mavjud. Ushbu tadqiqotni yozish jarayonida tarjimada soʻz tanlash mahoratini aniqlashda ingliz, rus va oʻzbek tillaridagi ekvivalentlarni solishtirish, qiyoslash va tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

NATIJA

Tarjimadagi ohangdoshlikni sezgan har qanday kitobxon tarjimonning bebaho uslub egasi ekanligidan bahramand boʻladi. Mirzakalon Ismoilij tarjimada uslub ustasi sifatida mashhur edi. Uning qalamidan chiqqan asarlarni oʻqigan kitobxon, har bir muallif va asar mavzusi, ruhiyatini hisobga olgan holda, uning uslubining ona tilimizda beqiyos mahorat bilan qayta tiklanganiga guvoh boʻladi.

XULOSA

Moskvalik adabiyotshunos olim Yevgeniya Taratuta tadqiqoti davomida Mirzakalon Ismoilij qalamiga mansub “Soʻna” tarjimasini topadi. Soʻngra u M. Ismoilij nomiga maktub yoʻllab, Etel Lilian Voynich ijodini tadqiq etishga kirishganini bildiradi va “Soʻna” romani oʻnlab tillarga oʻgirilgan boʻlsada, bu tarjimalarning hech biri oʻzbekcha tarjima darajasiga yetmaganini taʼkidlaydi.

Yevgeniya Taratuta baholashicha, asar hali-hanuz mashhurligini saqlab kelmoqda. “Soʻna” tarjimasini oʻqiganda, uning Mirzakalon Ismoilij tomonidan Voynich romani uslubiga shuncha mos keladigan ijod namunasiga aylantirilgani, ayrim joylarda esa, agar Voynich oʻzbek tilida yozganida, xuddi shunday ifodalagan boʻlar edi, degan darajaga yetkazilganini koʻrib hayratga tushamiz.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Salomov Gʻ. Tarjima tashvishlari. -T: Adabiyot va sanʼat, 1983.
2. The Macmillan English Dictionary. Macmillan Education, England, 2002.
3. Стратнова Т.А. Большой современный англо-русский и русско-английский словарь. Донецк, 2003.
4. Voynich, Ethel. The Gadfly. England, 1889.
5. Войнич, Э.Л. Овод. Перевод Н. Вольпяноевой. -Т: 1984.
6. Voynich, Ethel Lilian. Soʻna. Ruschadan Mirzakalon Ismoilij tarjimasi. -T: 1956.
7. Isomiddinov Z. Mirzakalon Ismoilij va til madaniyati. Til va adabiyot jurnali. 9-son 2018, b.18.